ISSN 3060-544X

2026-yil 6-son

ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

ilmiy-nazariy jurnal



BUXORO 2026

ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

ilmiy-nazariy jurnal

СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО И ИННОВАЦИИ

научно-теоретический журнал

MODERN SOCIETY AND INNOVATIONS

scientific-theoretical journal

№ 6-son, 2-qism 2026-yil

Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2025-yil 24-sentyabrdagi 375/5-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning disertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Mundarija /Содержание/Contents:

Bet	Muallif va maqola nomi	Yo‘nalishi
	DOLZARB MAVZU	
4	**Bozorov Aziz Abloqulovich** Bo‘lajak harbiy rahbarlarda strategik fikrlashni rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar	**Psixologiya**
9	**Aytmuratov Baxtiyar Turganbaevich** Oliy ta’lim talabalari kasbiy o‘zini anglashida metarefleksiyaning roli va psixologik determinantlari	**Psixologiya**
16	**Erkinova Nozima Utkir qizi** Raqamli ta’lim sharoitida bo‘lajak rus tili pedagoglarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli	**Pedagogika**
20	**Asadova Zarina Axmadovna** Masofaviy ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim samaradorligini ta’minlovchi psixologik omillar	**Psixologiya**
29	**Alimova Shoira Bozorovna** Perifrastik birliklarning izohli va tarjima lug‘atlarida leksikografik ifodalanish xususiyatlari	**Pedagogika**
34	**Absamatova Gulkhayo Bakhodirovna** Sign language interpretation as a bridge between verbal and nonverbal communication	**Pedagogika**
39	**Mukhlisa Sobirova** Pedagogical translanguaging in profession-oriented english instruction: a conceptual framework for agricultural esp	**Pedagogika**
47	**Farmonov O'tkir Alimovich** Malakali basketbolchi ayollarning texnik-taktik tayyorgarligini intellektual qobiliyatlar yordamida shakllantirish	**Pedagogika**
52	**Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi** Qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik omillari	**Psixologiya**
56	**Xuddiyeva Umida Aminjon qizi** Sun’iy intellekt asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tafakkurni shakllantirish metodikas	**Pedagogika**
62	**Ramazonov Jahongir Djalolovich, Nurova Shaxlobegim Ulug‘bek qizi** Sotsial intellektni o‘rganishning zamonaviy metodlari	**Pedagogika**
67	**Sharifova Maxliyo Zarif qizi** Bo‘lajak logopedlarning kasbiy refleksiyasini rivojlantirish orqali inklyuziv faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish	**Pedagogika**
74	**Komilova Ziroatxon Murodjon qizi** Umumta'lim maktablari sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari	**Pedagogika**
82	**O‘ktamova Shohida Odilbek qizi** Talabalarda kreativ tafakkurni rivojlanishining zamonaviy amaliy psixologik yo‘nalishlari	**Psixologiya**
88	**Yodgorov Bobirjon Turob o‘g‘li** Maktab va oiladagi kommunikativ muhitning o‘smirlarning raqamli xulqi hamda psixologik moslashuviga ta’siri	**Psixologiya**
93	**Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li** O‘smirlarda konstruktiv ijtimoiy faollikni shakllantirishda oila va tengdoshlar ta’sirining psixologik xususiyatlari	**Psixologiya**
98	**Axmedova Zarina Raxmat qizi**	**Pedagogika**

	Bo‘lajak pedagoglarda fasilitatorlik kompetensiyasini rivojlantirishda loyihaviy ta’lim texnologiyalarining samaradorligi	
104	**Sharipova Kumri Tolibjonovna** Maktab direktorlarining emotsional intellekti va boshqaruv samaradorligi o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik	**Psixologiya**
109	**Jo‘rayev Muxriddin Muyiddinovich** Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	**Psixologiya**
115	**Shukurov Uktam Baxodirovich** Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini kasbiy kommunikatsiyaga tayyorlashda pragmalingvistikaning ahamiyati	**Pedagogika**
120	**Dauekeeva Guljaxan Uralbaevna** Raqamli pedagogik texnologiyalar integratsiyasi asosida ta’lim samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	**Pedagogika**
126	**Ruziyeva Dilnoza Furqatovna** Timsollar va obrazlar tadrijida an'anaviylik va izdoshlik(Erkin Vohidov "Yoshlik devoni"asosida)	**Pedagogika**
130	**Sherjanova Nodira** Migrant oilalarda voyaga yetayotgan o‘smirlarda empatiya va mehr-shafqat namoyon bo‘lishining asosiy jihatlari	**Psixologiya**
134	**Muxamedov Feruz To‘lqinjonovich** Musiqiy ta’limda emotsional intellekt va sotsial-kognitiv kompetentlik o‘rtasidagi bog‘liqlik	**Psixologiya**
138	**Avulova Zamira Tursunmurodovna** **Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi** **Berdimurodova Laylo Sherbobo qizi** **Tog‘ayqulova Zuxra Abdug‘affor qizi** Tajriba-sinov ishlari asosida optika o‘qitish samaradorligi	**Pedagogika**
143	**Avulova Zamira Tursunmurodovna** **Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi** **Karimova Elmira, G‘aniyev Azizbek** STEAM yondashuvi asosida optikani o’qitish metodikasi	**Pedagogika**
148	**Avulova Zamira Tursunmurodovna** **Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi** **Bobonazarova Sevinch Abdunazar qizi** **Kamolova Madina Abdulla qizi** Optika darslarida 3D modellashtirish texnologiyalari	**Pedagogika**
154	**Narzullayev Farrux Ashrapovich** Malakali voleybolchilarni musobaqa faoliyatiga tayyorgarligini mashg’ulot jarayonida takomillashtirish	**Pedagogika**
158	**Ismatov Sobirjon Raximqulovich** Boshlang'ich ta'limda matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish	**Pedagogika**
167	**Zabriddinova Surayyo Bahriddin qizi** Ingliz va o'zbek tillarida grammatik kategoriyalarning kognitiv tabiati va olamning lisoniy konseptuallashuvidagi ishtiroki	**Pedagogika**
173	**Jumayev Furqat Shodmonovich** Bo’lajak o’qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish	**Pedagogika**
181	**To‘xtayeva Sitora Shuhrat qizi** Ta’limda psixologik xizmatni tashkl etish	**Psixologiya**
185	**Nematov Sohib Teshayevich**	**Pedagogika**

	Talaba-yoshlarda jismoniy chidamlilikni rivojlantirishda intervalli mashg‘ulotlar metodikasining samaradorligi	
192	**Hamroyev Jasurbek Umedovich** Sun’iy intellekt vositalari va talabalarda o‘quv motivatsiyasi susayishining psixologik sabablari	**Psixologiya**
199	**Kunnazarova Bibixatisha Babanazarovna** Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishda akmeologik yondashuvning ahamiyati	**Pedagogika**
205	**Odamboyeva Mashhura Murodbek qizi** O'quvchilarda ijtimoiy intellekt shakllanishida oilaning roli	**Pedagogika**
209	**Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi** Boshlang‘ich sinf “o‘qish savodxonligi” darsliklarining o‘quvchilar shaxsiy sifatlarini shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari	**Pedagogika**
216	**Абдурахманова Айгуль Тахировна** Социально-психологические основания изучения проектной вовлечённости студентов	**Pedagogika**
223	**Axmedova Munavvar Numanjanovna** Nutq buzilishlari mavjud bolalarda ijtimoiy moslashuvga ta’sir etuvchi oilaviy va psixologik omillar	**Psixologiya**
229	**Olimov Shahobiddin Maribboy o‘g‘li** Kurashchilarning funksional holatini monitoring qilish orqali mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari	**Pedagogika**
235	**Диёрова Наргиза Омоновна** Развитие умений диалогической речи студентов на основе технологии иноязычного коммуникативного тренинга	**Pedagogika**
243	**Salimov G‘ayrat Muxamedovich** **Boymurodova Niginabonu A’zam qizi** Jismoniy mashg‘ulotlar orqali bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish	**Pedagogika**
248	**Shermatova Manzura Ikromjanovna** Suggestiv usullar vositasida xulqi og‘ishgan yoshlarda ijobiy xulq-atvor motivlarini shakllantirishga bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash	**Psixologiya**
254	**Umirov Ilhom Iskandar o‘g‘li** Muhandislik ta’limida qo‘llaniladigan raqamli platformalar va vositalar (autocad, solidworks, fusion 360 va boshqalar)	**Pedagogika**
259	**Lutfullayeva Marjona Zafar qizi** Rivojlangan davlatlar tajribasida xavfsizlik kompetensiyasini o'qitish modellari	**Pedagogika**
264	**Jumanov Sherzod Saloyevich** Maktab - raqamli avlod tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik integratori sifatida	**Pedagogika**
269	**No‘monov Ahror Azamat o‘g‘li** Ta’lim jarayonida metodik komplekslardan foydalanishning evolyutsiyasi va talabalarning o‘quv kompetensiyalariga ta’siri	**Pedagogika**
274	**Axmedova Zarrina Jamilovna** Talaba-yoshlar orasida dual ta'lim tizimiga moslashuvining pedagogik-psixologik xususiyatlari	**Psixologiya**
277	**Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li** Ta’lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etishni takomillashtirishning zamonaviy ijtimoiy-psixologik yondashuvlari	**Psixologiya**
282	**Fayziyeva Zarifa Xikmatovna**	**Pedagogika**

	Муҳандислик физикаси кўникмалари асосида қаттиқ жисмлар физикасини ўқитишда инновацион технологик ёндашувлар	
287	**Maxmudov Maqsud** Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini voleybolga o‘qitishda innovatsion va interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish samaradorligi	**Pedagogika**
293	**Nishanova Dildora Komiljanovna** Kibermakonda diniy-mafkuraviy tahdidlar va axborot xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-ma’naviy omillari	**Pedagogika**
298	**Kabulov Rustam Jumaniyozovich** Ibn Battuta sayohatnomasida O‘rta Osiyo ziyoratgohlari: XIV asr musulmon jamiyatining diniy-ma'naviy hayoti tahlili	**Pedagogika**
303	**Begulov Olmas Uktam o‘g‘li, Abdullaev Ravshan Narzulloevich Jurayeva Iroda Jomurod qizi, Omonov Islom Raimnazar o‘g‘li** Maktab o‘quvchilariga python dasturlash tilini o‘qitishning samarali metodikalari: nazariya va amaliyot uyg‘unligi	**Pedagogika**
309	**Eshnazarov Ulug'bek Bobomuradovich** Gamifikatsiya va o‘yin elementlari yordamida raqamli ta’lim samaradorligini oshirish	**Pedagogika**
313	**Sharipov Olimjon Oripovich** Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy ong va milliy identiklikni integrativ rivojlantirish metodikasi	**Pedagogika**
318	**Abduraxmanova Charos Burxanovna** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatida raqamli didaktik o‘yinlar orqali mustaqil ishlarni tashkil etish metodikasi	**Pedagogika**
323	**Sayitqulov Shuxrat Murodovich, Saidov Xurshid Murodullayevich** Virtual laboratoriyalar asosida kimyo fanidan eksperimental ta’limni takomillashtirish	**Pedagogika**
330	**Maxmudova Sevinch Shuxrat qizi, Bazarboyeva Risolat Hamidjon qizi Yigitaliyeva Gulbahor Ikromjon qizi, Aminov Shavkatjon Sobir o‘g’li** Ta’lim tizimida sun’iy intellekt (SI): pedagogik paradigmalar o‘zgarishi va kelajak istiqbollari	**Pedagogika**
339	**Ibragimova Go’zal Rustamovna** Blended learning (aralash ta'lim) modelida o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik mexanizmlari	**Pedagogika**
343	**Xamidov Amin Abdulloevich** Yuqori sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini raqamli ta’lim muhitida shakllantirishning pedagogik modeli: nazariyadan amaliyotgacha	**Pedagogika**
349	**Abdiraimova Gulrux Samad qizi** Uzviylik va izchillik prinsiplari asosida kognitiv faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirishning pedagogik modeli	**Pedagogika**
354	**Dosjanova Yulduzkhan Rahatovna** Shaxsda diniy qadriyatlar va an’analar tizimining ijtimoiy-psixologik tuzilishi: oliy ta’lim talabalari misolida ilmiy-amaliy tahlil	**Psixologiya**
362	**Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi** Oilaviy munosabatlarda shaxs kognitiv rivojlanishining psixologik omillari	**Psixologiya**
369	**Eshov Erkin Sattorovich** O'spirinlar kognitiv tizimni rivojlantirishda emotsional intellektning o`ziga xos pedagogik-psixologik determinantlari	**Psixologiya**
374	**Umarov Lutfillo Murodilloyevich** Talabalarni uzluksiz ta’lim tizimi makonida integratsiyalashgan tayyorlash metodologiyasi	**Pedagogika**
378	**Shirinov Otabek Tuvalovich**	**Psixologiya**

	Psixologik xizmatda kasbiy “burnout” sindromining oldini olish strategiyalari	
383	**Tangirov Eldor Sayfullaevich** Ko‘p millatli ta’lim muhitida talabalarda tolerantlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	**Pedagogika**
389	**Abdurahmonova Mohira Zokir qizi, Bo‘riboyeva Marjan Osman qizi Aminov Shavkatjon Sobir o‘g‘li** Kasbiy faoliyatda internet texnologiyalarini qo‘llash	**Pedagogika**
394	**Сайдуллаев Зафар Эркинович** Улучшение организации процесса дистанционного обучения на основе когнитивного анализа	**Pedagogika**

Nishanova Dildora Komiljanovna
Oriental Universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti v.b.
dnishanova1987@gmail.com
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0009-8946-8323

KIBERMAKONDA DINIY-MAFKURAVIY TAHDIDLAR VA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-MA'NAVIY OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy axborot jamiyatining ajralmas qismiga aylangan kibermakon tushunchasi, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni hamda virtual makonda yuzaga kelayotgan diniy-mafkuraviy tahdidlar tahlil qilinadi. Shuningdek, din niqobi ostida amalga oshirilayotgan ekstremistik targ'ibotlarning shakllari, axborot urushining mazmun-mohiyati, yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hamda ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish masalalari yoritiladi. Maqolada kibermakondagi tahdidlarga qarshi kurashishda ma'rifiy yondashuv, axborot savodxonligi va kiberxavfsizlik tizimining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *kibermakon, axborot xavfsizligi, axborot urushi, diniy ekstremizm, mafkuraviy tahdid, kiberterrorizm, internet, axborot iste'moli madaniyati, yoshlar, ma'rifat.*

Abstract. *This article analyzes the concept of cyberspace, which has become an integral part of the modern information society, its role in social life, and religious and ideological threats emerging in virtual space. It also covers the forms of extremist propaganda carried out under the guise of religion, the essence of information warfare, factors influencing the consciousness of young people, and the issues of forming a culture of religious information consumption in social networks. The article scientifically substantiates the importance of an educational approach, information literacy, and a cybersecurity system in combating threats in cyberspace.*

Key words: *cyberspace, information security, information warfare, religious extremism, ideological threat, cyberterrorism, Internet, information consumption culture, youth, enlightenment.*

Аннотация. *В данной статье анализируется концепция киберпространства, ставшего неотъемлемой частью современного информационного общества, его роль в общественной жизни, а также религиозные и идеологические угрозы, возникающие в виртуальном пространстве. Рассматриваются также формы экстремистской пропаганды, осуществляемой под видом религии, сущность информационной войны, факторы, влияющие на сознание молодежи, и вопросы формирования культуры потребления религиозной информации в социальных сетях. В статье научно обосновывается важность образовательного подхода, информационной грамотности и системы кибербезопасности в борьбе с угрозами в киберпространстве.*

Ключевые слова: *киберпространство, информационная безопасность, информационная война, религиозный экстремизм, идеологическая угроза, кибертерроризм, Интернет, культура потребления информации, молодежь, просвещение.*

Kirish. XXI asr axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan, inson hayotining barcha sohalariga raqamli texnologiyalar chuqur kirib borayotgan davr sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda internet va zamonaviy kommunikatsiya vositalari insonlar o'rtasidagi muloqot, bilim almashinuvi, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, virtual makonning kengayishi yangi turdagi xavflarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Ana shunday murakkab jarayonlarda "kibermakon" tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Kibermakon nafaqat texnologik muhit, balki turli g'oyalar, mafkuralar va axborot oqimlari to'qnashadigan zamonaviy ijtimoiy makon sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, diniy qadriyatlar va e'tiqod masalalari bilan bog'liq axborotlarning internet orqali tez tarqalishi mazkur sohada chuqur ilmiy tahlil olib borishni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kibermakonda din niqobi ostida tarqatilayotgan ekstremistik g‘oyalar, yolg‘on diniy axborotlar va manipulyativ materiallar bugungi kunda global xavfsizlikka tahdid soluvchi omillardan biriga aylanmoqda. Shu sababli zamonaviy jamiyat oldida nafaqat texnik himoya vositalarini rivojlantirish, balki aholining, ayniqsa yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirish vazifasi ham turibdi. “Kibermakon” tushunchasi ilk bor kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson tomonidan 1982 yilda “Burning Chrome” asarida qo‘llangan [8]. Keyinchalik uning “Neyromancer” asarida ushbu tushuncha yanada rivojlantirilib, inson va texnologiya o‘rtasidagi yangi virtual makon sifatida tasvirlangan. Bugungi ilmiy qarashlarda kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali bog‘langan, axborot almashinuvi amalga oshiriladigan virtual muhit sifatida izohlanadi. U geografik chegaralardan mustaqil bo‘lib, dunyoning turli nuqtalaridagi insonlarni yagona axborot maydonida birlashtiradi [9]. Kibermakonning ijobiy jihatlari nihoyatda katta. U ta’lim, ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va xalqaro aloqalar rivojiga xizmat qilmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlardan turli buzg‘unchi kuchlar ham foydalanishga urinmoqda. Ayniqsa, diniy ekstremistik guruhlar internetdan o‘z mafkuraviy maqsadlarini amalga oshirish vositasi sifatida foydalanmoqda. Mazkur holat kibermakonni oddiy texnologik maydon emas, balki g‘oyaviy kurash maydoni sifatida ham baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar sharhi. Kibermakon, diniy-mafkuraviy tahdidlar va axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu muammoning ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur yo‘nalishda yaratilgan ilmiy adabiyotlarda asosan diniy ekstremizmning ijtimoiy-ma’naviy omillari, axborot texnologiyalaridan g‘arazli maqsadlarda foydalanish shakllari hamda yoshlar ongini zararli g‘oyalardan himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Professor Z.Islomovning muharrirligi ostida nashr qilingan “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” nomli tadqiqotida diniy ekstremizm va terrorizmning kelib chiqish sabablari, uning jamiyat barqarorligiga ta’siri hamda unga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif diniy ekstremistik g‘oyalarning asosiy manbalaridan biri diniy savodsizlik, noto‘g‘ri talqin va mafkuraviy bo‘shliq ekanligini ta’kidlaydi. Tadqiqotda ekstremizmga qarshi kurashda faqat huquqiy choralar emas, balki ilm-ma’rifat, sog‘lom diniy tafakkur va yoshlarning ma’naviy immunitetini shakllantirish muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu yondashuv mazkur maqolada kibermakonda tarqalayotgan diniy tahdidlarning oldini olish masalasini yoritishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. S.Akramovaning “O‘zbekiston axborot xavfsizligi sohasidagi huquqiy tartibotning zamonaviy muammolari va xalqaro amaliyot asosida takliflar” nomli maqolasida axborot xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslari, zamonaviy kiberxavflarning shakllari va ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan kiberjinoyatchilik, noqonuniy axborot tarqatish va virtual makondagi tahdidlar ko‘lami ortib borayotganini qayd etadi. Tadqiqotda xalqaro tajriba asosida axborot xavfsizligini mustahkamlash, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va fuqarolarning axborot madaniyatini oshirish zarurligi asoslab berilgan. Mazkur ilmiy qarashlar maqolada kibermakondagi xavflarni tahlil qilishda muhim manba sifatida foydalanildi. “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” bo‘yicha xalqaro tashabbuslar materiallari zamonaviy jamiyatda diniy bag‘rikenglik, konfessiyalararo totuvlik va ekstremistik g‘oyalarning oldini olish masalalarini yoritadi. Ushbu manbalarda jaholat va diniy savodsizlikni kamaytirish, turli din vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat va muloqotni rivojlantirish barqaror jamiyat qurishning muhim sharti sifatida baholanadi. Mazkur yondashuv kibermakonda diniy qarama-qarshilik va radikal qarashlarning oldini olishda ma’rifiy strategiyaning ahamiyatini ochib beradi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines” asarida axborot va media savodxonligini rivojlantirish masalalari xalqaro tajriba asosida tahlil qilingan. Unda zamonaviy insonning turli axborot oqimlari sharoitida ishonchli manbalarni ajrata olish, axborotni tahliliy qabul qilish va undan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarurligi qayd etiladi. Ushbu konsepsiya bugungi kunda diniy mazmundagi axborotlarni iste’mol qilish madaniyatini shakllantirishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi davrda diniy ekstremistik tashkilotlar o‘z targ‘ibot faoliyatini an’anaviy usullardan tashqari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ham olib bormoqda. Ular diniy tushunchalarni noto‘g‘ri talqin qilish, yoshlarning ishonuvchanligidan foydalanish va ularning ongiga ta’sir o‘tkazish orqali o‘z maqsadlariga erishishga harakat qilmoqda. Bunday guruhlarning asosiy maqsadi dinning asl mohiyatini buzib ko‘rsatish, diniy qadriyatlardan siyosiy va ekstremistik maqsadlarda foydalanishdan iboratdir. Internetdagi turli videolar, maqolalar, yopiq guruhlar va messenjerlardagi kanallar orqali radikal qarashlar tarqatilishi ushbu muammoning yanada murakkablashishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham zamonaviy axborot makonida diniy niqob ostidagi tahdidlarga qarshi kurash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan [1]. Ushbu yondashuvda asosiy tamoyil - jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish g‘oyasidir. Diniy ekstremizmga qarshi samarali kurash faqat huquqiy choralar bilan emas, balki aholining diniy savodxonligini oshirish, yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Axborot insoniyat tarixida har doim muhim strategik vosita bo‘lib kelgan. Biroq zamonaviy texnologiyalar rivoji natijasida axborot endilikda nafaqat bilim manbai, balki ta’sir o‘tkazish quroli sifatida ham namoyon bo‘lmoqda [2].

“Axborot urushi” tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy muomalaga kirib kelgan. Bu tushuncha dastlab harbiy sohada qo‘llanilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda u siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy jarayonlarda ham keng ishlatilmoqda. Axborot urushining asosiy maqsadi raqib tomonning qarashlariga, fikrlash tarziga va qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Bunda yolg‘on axborot, manipulyativ materiallar, stereotiplar va hissiy ta’sir vositalaridan foydalaniladi. Kibermakon sharoitida axborot urushi yanada murakkab tus olmoqda [4:13]. Chunki internet orqali tarqatilgan axborot qisqa vaqt ichida millionlab insonlarga yetib borishi mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar turli axborot oqimlarining asosiy iste’molchisi va shu bilan birga turli mafkuraviy ta’sirlarning asosiy nishoniga aylanmoqda. Yosh avlodning internetdan faol foydalanishi ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, muayyan xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Diniy ekstremistik guruhlar aynan yoshlarning qiziqishi, izlanishi va dunyoqarashi shakllanish jarayonidan foydalanishga harakat qiladi. Chunki yoshlar yangi g‘oyalarga ochiq, tez ta’sirchan va faol ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Ayrim radikal guruhlar diniy tushunchalarni buzib talqin qilish orqali yoshlarni o‘z saflariga jalb etishga urinmoqda. Bunday jarayonlarda asosiy vosita sifatida internet, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan foydalanilmoqda. Ular yoshlarning diniy bilimga bo‘lgan ehtiyojidan foydalanib, ilmiy asoslanmagan, noto‘g‘ri va siyosiy maqsadlarga yo‘naltirilgan axborotlarni tarqatmoqda. Shu sababli yoshlar orasida diniy savodxonlikni oshirish, ularda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va tekshirish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Diniy ekstremizmga qarshi kurashda eng samarali vositalardan biri - ma’rifiy yondashuvdir. Chunki jaholat va diniy savodsizlik turli buzg‘unchi g‘oyalarning tarqalishi uchun qulay muhit yaratadi. Ilm-ma’rifatga asoslangan jamiyat esa bunday tahdidlarga nisbatan kuchli mafkuraviy immunitet hosil qiladi.

Jadval-1.

Kibermakonda yuzaga kelayotgan diniy-mafkuraviy tahdidlarning asosiy ko‘rinishlari va ularning oldini olish mexanizmlari

Kibermakonda yuzaga kelayotgan diniy-mafkuraviy tahdidlarning asosiy ko‘rinishlari				
№	Tahdid turi	Namoyon bo‘lish shakli	Ta’sir obyekti	Oldini olish mexanizmi
1	Diniy ekstremistik targ‘ibot	Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, video va audio materiallar orqali radikal g‘oyalarni tarqatish	Yoshlar ongi va dunyoqarashi	Diniy-ma’rifiy targ‘ibot, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

2	Soxta diniy axborot	Asossiz fatvolar, noto‘g‘ri talqinlar, manipulyativ xabarlar	Axborot iste’molchilari	Manbani tekshirish, ilmiy asoslangan diniy bilim
3	Kiberterrorizm	Internet orqali qo‘rqitish, yollash, ekstremistik faoliyatni tashkil etish	Jamiyat xavfsizligi	Kiberxavfsizlik tizimlari va huquqiy choralar
4	Axborot urushi	Yolg‘on ma’lumot, psixologik ta’sir, mafkuraviy bosim	Ijtimoiy ong	Media savodxonlik va axborot madaniyati
5	Kiberjinoyatchilik	Firibgarlik, ma’lumotlarni o‘g‘irlash, zararli dasturlar	Shaxs, tashkilot va davlat	Raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish

Internet bugungi kunda insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. U orqali insonlar bilim oladi, muloqot qiladi, yangiliklardan xabardor bo‘ladi va turli xizmatlardan foydalanadi. Biroq internetdagi barcha axborotlar ham ishonchli va foydali emas. Ayniqsa diniy mazmundagi axborotlarni qabul qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Chunki diniy masalalar insonning e’tiqodi, dunyoqarashi va ma’naviy hayoti bilan bevosita bog‘liqdir. Axborot iste’moli madaniyati deganda insonning turli axborotlarni tanlash, tahlil qilish, baholash va undan oqilona foydalanish qobiliyati tushuniladi [5:31]. Bugungi yoshlar nafaqat axborotni qabul qiluvchi, balki uni tarqatuvchi subyekt hamdir. Shu sababli ularda mas’uliyat hissini shakllantirish zarur. Har bir inson internetdagi ma’lumotni qabul qilishdan oldin quyidagi savollarni o‘ziga berishi lozim:

Ushbu axborot manbasi kim?
Ushbu ma’lumot qanday maqsadda tarqatilmoqda?
Keltirilgan dalillar ilmiy va ishonchli manbalarga asoslanganmi?
Ana shunday yondashuv insonni yolg‘on va manipulyativ axborotlardan himoya qiladi.

Jadval-2.

Internet va yoshlarning axborot iste’moli bilan bog‘liq ijobiy va salbiy omillar

Internet va yoshlar axborot iste’moli bilan bog‘liq omillar		
Omil	Ijobiy jihati	Salbiy jihati
Internet	Bilim olish, ilmiy manbalarga kirish	Noto‘g‘ri axborot tarqalishi
Ijtimoiy tarmoqlar	Muloqot va fikr almashish	Manipulyativ targ‘ibot
Diniy kontent	Ma’rifiy bilim olish imkoniyati	Dinni noto‘g‘ri talqin qilish
Onlayn platformalar	Ta’lim va rivojlanish	Radikal guruhlar ta’siri

Bugungi kunda kibermakondagi tahdidlarning yana bir muhim yo‘nalishi - kiberjinoyatchilikdir. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda, undan noqonuniy maqsadlarda foydalanish holatlari ham ortib bormoqda. Kiberjinoyatchilik tushunchasi axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalari va internet vositalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarni qamrab oladi. Bunga ma’lumotlarni o‘g‘irlash, zararli dasturlar tarqatish, elektron firibgarlik, shaxsiy ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish kabi holatlar kiradi. Kiberjinoyatchilikning xavfi shundaki, u hududiy chegaralarni bilmaydi. Bir davlat hududida amalga oshirilgan hujum boshqa davlatdagi shaxslar yoki tashkilotlarga zarar yetkazishi mumkin [3].

O‘zbekistonda ham raqamli xavfsizlikni ta’minlash, axborot tizimlarini himoya qilish va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yo‘nalishida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy asoslar takomillashtirilmoqda. Kiberxavfsizlikni

ta’minlash faqat davlat organlarining vazifasi emas, balki har bir internet foydalanuvchisining mas’uliyatidir. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, noma’lum manbalardan kelgan havolalarni ochmaslik, axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilish zamonaviy jamiyat uchun zarur ko‘nikmalardan biridir.

Xulosa va takliflar. Kibermakon zamonaviy sivilizatsiyaning ajralmas qismi bo‘lib, u insoniyat taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, undan turli buzg‘unchi kuchlar tomonidan foydalanilishi yangi xavf va tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, din niqobi ostidagi ekstremistik targ‘ibotlar, yolg‘on diniy axborotlar va kiberjinoyatchilik bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bunday tahdidlarga qarshi kurashishda faqat texnik choralar yetarli emas. Eng muhim omil - jamiyatning ma’naviy va axborot immunitetini shakllantirishdir. Yoshlarning diniy va dunyoviy bilimlarini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini rivojlantirish, internetdan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy xavfsizlikning muhim shartlaridan hisoblanadi. Shunday ekan, kibermakondagi tahdidlarga qarshi kurashning eng samarali yo‘li - ilm-ma’rifat, sog‘lom tafakkur va axborot mas’uliyatini kuchaytirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqlari. – Toshkent, 2017–2023.
4. Islomov Z. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2018.
5. Akramova S. O‘zbekiston axborot xavfsizligi sohasidagi huquqiy tartibotning zamonaviy muammolari va xalqaro amaliyot asosida takliflar. // Fan va jamiyat, 2025.
6. “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” bo‘yicha xalqaro tashabbuslar materiallari. – Toshkent, 2018.
7. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris, 2013.